

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

O‘ZBEK VA CHET TILI O‘RGATISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Salimova Zebo Rustam qizi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

Turk filologiyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda, bunday bo‘lishiga sabablardan biri shu kungacha ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash esa ularni mustaqil fikrlashga kerakli masalalarni izlab topishga, tahlil va xulosa qilishga o‘rgatadi.

Kalit so‘zlar: texnologiya, multimedia, pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari, chet tili, IELTS, tendensiya.

Abstract: Nowadays, there is a growing interest in the use of interactive methods, innovative technologies, pedagogical technologies in education, one of the reasons for which to date students are taught only ready-made knowledge, and the use of modern technologies requires them to think independently. teaches to search, analyze and draw conclusions.

Keywords: technology, multimedia, pedagogical technology, information technology, foreign language, IELTS, trends.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o‘tib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o‘zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda chet tillarni o‘qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o‘qitilishi jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumiyevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR, TOEFL, IELTS) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o‘quv xonalari standlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o‘rganishga bo‘lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to‘rt aspektga (o‘qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo‘linib, ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berilmoqda. Ta’lim texnologiyalari, bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o‘rganishda bunday axborot-kommunikatsion

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o‘rganish va o‘qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o‘rganishning har bir aspect (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) ida qo‘l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o‘quvchi bir paytning o‘zida so‘zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so‘z boyligi va uning ma’nolariga e’tibor berishi talab qilinadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: — kompyuterlardan foydalanganda o‘quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko‘rishi ham eshitishi mumkin; — chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; — ancha an’anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; — CD playerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishini ta’minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o‘rganish va o‘qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so‘zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin.

Ta’lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to‘g‘ri, unumli foydalanish, ular orqali o‘quvchida chet tiliga bo‘lgan qiziqishni orttirish, o‘qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta’limning innavatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug‘iladi va talab ortadi. Bugungi kunda innavatsion ta’lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo‘ladi va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarining ortishi ham ta’minlanadi. Ta’lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiq qilish orqali ta’lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o‘qitilishida turli rolli, harakatli o‘yinlardan foydalanish ham darsga ham til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni ortishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o‘quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

beradi. Ta’lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o‘quvchilarga yetkazib berishda eng muhim vositalardan hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Chet tilini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so‘zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo‘ladi.

Ta’lim sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta’lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta’lim - tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanishlari uchun, eng avvalo bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish, ta’lim tizimini texnik jihatdan ta’minlash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to‘la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin.

Ta’lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usul-laridan biri o‘quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediali o‘quv kurslarini qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchining interfaol o‘zaro aloqalarini ta’minlash, multimediali o‘quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo‘ladi.

Bizga ma’lumki, bugungi kunda ta’lim sohasi sifat va samaradorligini oshirishni zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim jarayonini didaktik va axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish bosqichida ta’lim-tarbiya mazmunini o‘zlashtirishning muammolarini yechishga qaratilgan zamonaviy ta’lim-tarbiya texnologiyalarini yaratish dolzarb masala ekanligi ta’kidlangan. Shu jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonida fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasi usullarini rivojlantirish, uni amaliyotga joriy etish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil bilim olish jarayonini individuallashtirish, shu bilan birga masofali ta’lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish, o‘zlashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari hamda masofali o‘qitish texnologiyalari asosida o‘quvchilarni o‘qitishni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Hozirgi paytda ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim omillardan biri texnik vositalardan foydalanishdir. Bu esa o‘z navbatida, til o‘rganishga nisbatan

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

qiziqishni va o‘tilayotgan darslarning sifatini oshiradi, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini ta‘minlaydi. Ta‘lim jarayonida usullar to‘g‘ri tanlansa, ko‘zlangan natijaga qisqa yo‘l bilan erishish mumkin. Ta‘lim-tarbiya sohasining to‘xtovsiz takomillashib borishi, o‘quv darslarini pedagogik innovatsiyalar asosida tashkil etish, oliy ta‘lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan bo‘lib uni muvaffaqiyatli amalga oshirish oliy ta‘lim professor-o‘qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar butun dunyodagi ko‘plab o‘zgarishlarga guvoh bo‘ldi va bu o‘zgarishlar odamlarning turmush darajasi va farovonligini rivojlantirdi. Texnologiyalar turli sohalarga tatbiq etilgandan buyon butun dunyo global maydonga aylandi va odamlar bir necha soniyada barcha tadbirlarni juda samarali bajarishlari mumkin. To‘g‘ri, ta‘lim sohasiga eng yangi texnologik yangiliklarni kiritish bilan ta‘lim sohasi ham ko‘proq foyda keltirdi. Hozirgi avlodda zamonaviy o‘quvchilarning munosabatlari va ta‘lim uslublarida keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Ingliz tili kabi tilni o‘rganishda ular tilni o‘qitishning an‘anaviy usullari va yondashuvlarini qabul qilmaydilar. Ammo ularni ingliz tilini o‘qitishning so‘nggi uslublari, uslublari va yondashuvlari juda qiziqtiradi. Xuddi shu holatni ikkinchi yoki chet tilini o‘rganuvchilarga ingliz tilini o‘rgatishda ham kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, ba‘zi zamonaviy ingliz tili o‘qituvchilari vaziyatni o‘z vaqtida angladilar va ular eng yangi uslublar va yondashuvlarni amalga oshirish bilan bir qatorda o‘qitishda yangi texnologiyalarni o‘zlashtirmoqdalar. Ingliz tilini o‘rganish o‘quvchilar uchun qiziqarli va hayajonli bo‘lishi uchun o‘qituvchilar doimo innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishga va IELTS zamonaviy tendentsiyalaridan xabardor bo‘lishga harakat qilishlari kerak.

Texnologiya ta‘lim sohasiga yangi o‘lchov olib keldi. Ushbu raqamli davrda bo‘r va doska uchun imkoniyat yo‘q va ular o‘rniga raqamli yoki aqlli yoki interaktiv oq taxtalar o‘rnatildi, shuning uchun o‘qituvchining yuki kamaytirildi va o‘quvchilarning konsentratsiyasi oshirildi. Natijada, o‘quvchilar o‘rtasida tarkibga suyanishda ijobiy munosabat mavjud bo‘lib, o‘qituvchilar ularni kompyuter, noutbuk, mobil telefon, planshet va h.k. kabi mavjud texnologiyalardan foydalangan holda ularni ijobiy tarzda rag‘batlantirishga qodir. Bundan tashqari, o‘qituvchilar o‘zlarining sinflarida raqamli matnlar va haqiqiy materiallardan foydalanib, o‘quvchilarda o‘quv nuqtasiga qiziqish uyg‘otmoqda.

So‘nggi yillarda o‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasi tobora ko‘payib bormoqda. Bu nafaqat yangi texnik vositalar, balki o‘qitishning yangi shakllari va usullarini, o‘rganishga yangicha yondoshishdir. Chet

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

tilini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘z oldimizga qo‘ygan asosiy maqsadimiz - bu chet tilida talabalarni o‘qitish sifatini oshirish, ularning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, amaliy mashg‘ulotlarni o‘rganish uchun texnologiyadan qanday samarali foydalanish mumkinligini ko‘rsatish.

Biz bugungi kunda dunyoda kompyuterlar hukmronlik qiladigan davrdamiz. Xuddi texnologiya ishbilarmonlik aloqalarida, o‘yin-kulgida, musiqada, filmlarda va kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalarida katta ahamiyatga ega bo‘lgani kabi, u ham ta’limda bir xil darajada muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 90% i maktabda, ishda yoki uyda qandaydir turdagi kompyuter yoki mobil qurilmalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, sinflar va o‘qitish uslublari evolyutsiyasini texnologiya yo‘nalishida tortishayotganini ko‘rish ajablanarli emas.

So‘nggi yillarda yangi, texnologiya bilan birlashtirilgan sinf xonalari til o‘rganishda ommalashmoqda. Aralashirilgan ta’lim, virtual sinflar va ta’limni boshqarish tizimlari - bu eng yaxshi pedagog mutaxassislar tomonidan ma’qullanadigan ushbu yangi o‘qitish metodikasi davrining namunalari. Ushbu usullar o‘quvchilarning faolligini kuchaytirish, o‘qituvchining rolini engillashtirish va barcha ishtirokchilar uchun tizimli, keng qamrovli o‘quv tajribasini ta’minlash uchun tilni o‘rganish texnologiyasidan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Texnologiyalarning eng ilhomlantiruvchi jihati - bu butun dunyodagi tomoshabinlarni qamrab olish qobiliyatidir. Tilni o‘rganishda bu mahalliy o‘qituvchilarni jalb qilish va talabalar ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan o‘qitiladigan kurslarga kirish - bu to‘g‘ri immersiyani ta’minlash demakdir. Til ta’limini onlayn ravishda qabul qilish deyarli har kimga ushbu kurs va uning manbalaridan foydalanish imkoniyatini beradigan eshikni ochadi.

Ta’lim markazlaridagi tillarni o‘rganish texnologiyasi kelajak emas, balki hozirgi ta’limdir. Sinfda yangi texnologiyalardan foydalanish tilni o‘zlashtirish yoki unga ega bo‘lish uchun mukammal qo‘shimcha bo‘ldi va texnologik qo‘llab-quvvatlash bilan birga ingliz tili kurslari o‘qishda muvaffaqiyat qozonishni istagan talabalar uchun eng samarali va kerakli hisoblanadi.

Bundan tashqari muvaffaqiyatli o‘qituvchilarni tayyorlashda ham texnologiyalar ko‘proq foyda keltiradi. Aslida, muvaffaqiyatli o‘qituvchilar - bular shaxslararo va shaxslararo munosabatlarning yuqori darajalariga ega va ular bolalar bilan tanishish uchun real imkoniyatlarga ega, qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar va ularning so‘zlarini chin dildan eshitish. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

o‘qituvchilarga ega bo‘lishi kerak, o‘qitiladigan materialni va uning kamtarligini, sevimli shaxsiyatini va ularning o‘zaro munosabatini chuqur anglash va ularning o‘quvchilari bilan aloqa qilish va ularga bo‘lgan hurmat. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli ingliz tili o‘qituvchilari mavjud texnologiyalardan maksimal darajada foydalanishlari kerak, o‘quv xonalari va shuningdek, o‘z o‘quvchilari uchun Internetdan yuklab olingan qiziqarli materiallardan foydalanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saydaliyev S. Chet tili o‘rgatish metodikasidan maruza matnlari - Namangan-2002;
2. Yo‘ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiyalar yo‘nalishlari, muammolari. Xalq ta’limi 1999-yil;
3. Hoshimov O‘.H; Yoquvov I.Y. Ingliz tili o‘qitish metodikasi- Toshkent -2003 -yil;
4. Chet tillarini o‘qitish zamonaviy texnologiyasi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari - Toshkent 2007-yil;
5. Ziyonet.uz
6. Pedagog.uz
7. Literaryagency.uz